

FIZIKADA XALQ OG’ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

Kosimova Yanglish Baxtiyarovna

A.Qodiriy nomidagi JDPU “Fizika va uni o’qitish metodikasi” kafedrasi stajor-o’qituvchi

e-mail: kosimovayanglish88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola fizika fanini o’qitishda mavzularni tushunarli va sodda tarzda bayon qilishga va fanni o’qitish bilan birgalikda o’quvchilarni xalq og’zaki ijodiga mehr-muhabbat bilan tarbiyalashga chorlaydi. Hozirgi zamонавиy bilimlar turli yangiliklar va texnologiyalar rivojlanishiga asoslangan. Shu bois yoshlarga ajdodlardan qolgan ma’naviy merosni fan va mavzuni tushuntirish bilan birgalikda olib borishga undaydi.

Kalit so’zlar: xalq og’zaki ijodi, maqol, topishmoq, fizika, mavzu, aylanma harakat, vaqt, o’qituvchi, o’quvchi.

Xalq og’zaki ijodi o’zbek xalqining ma’naviy boyliklaridan hisoblanadi. Xalq og’zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo’lgan pand-nasihatlari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san’at darajasiga ko’tarilgan so’z tizimlaridan iborat maqol, qo’shiq, ertak, doston, bolalarga bag’ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi.

Fizika fani “tabiat” haqidagi fandir. Fizika fani orqali o’quvchilar tabiatdagи jarayon, hodisalar, qonuniyatlarni o’rganadi. Bu fanni o’quvchilarga tushunarli, sodda tarzda tushuntirib, yetkazib berish o’qituvchining mahoratiga bog’liq.

Xalq og’zaki ijodi sirasiga kiruvchi maqollarni ham ajdodlarimiz tabiat hodisalari, atrof-muhit qoidalariiga asosan xulosaviy tarzda aytib o’tganlar. Fizika darslarida maqollardan kerakli joyda, to’g’ri foydalanish va maqol orqali mavzuning mazmun-mohiyatini o’quvchiga yetkazib berish ham o’qituvchidan bir qator bilim, ko’nikma va mahoratni talab qiladi.

Quyida “Fizika” fanining ayrim mavzu, qoida va qonuniyatlarida xalq og’zaki ijodi namunasi bo’lmish maqollardan foydalanishga misollar ko’rib chiqamiz.

I. “Aylanma harakat” mavzusi fizika fanining eng qiziqarli, tushunarli, o’quvchi uchun ham tanish bo’lgan mavzularidan biridir. Bu mavzuda o’quvchining o’zi ham tabiat va turmushda juda ko’plab misol va namunalar keltira oladi. Shunday bo’lsada,

bu mavzuning fizik mohiyati, formula va qoidalari o’quvchi uchun yangilik hisoblanadi. Ana shu yangiliklarni kundalik hayotimizda ko’p bora eshitgan, turmushimizdagi holatlarga mos keluvchi maqollar orqali izohlab yanada oson va sodda tarzda tushuntirish mumkin.

Xalqimizda shunday maqol bor: “Ot aylanib qozig’ini topadi”. Bu maqoldan kundalik hayotda juda ko’p holatlarda foydalanamiz. Fizika darslarida esa aylanani ta’riflashda, aylanma harakatda tezlanishning yo’nalishini tushuntirishda juda mohirona foydalanilsa bo’ladi.

“Dinamika” bo’limining eng asosiy mavzulari Nyuton qonunlari hisoblanadi. Bu qonunlar orqali dinamika bo’limi ajoyib tarzda tushuntirib berilgan. Nyutonning I qonunini tushuntirish jarayonida quyidagi maqollardan foydalanish mumkin:

1. Shamol bo’lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi.
2. Bola yig’lamasa ona sut bermaydi.

Bilamizki, Nyutonning I qonuni “Inersiya” qonuni hisoblanib, ta’rifi quyidagicha: “Har qanday jism unga boshqa jism ta’sir qilmaguncha u o’zining tinch yoki tekis va to’g’ri chiziqli harakat holatini saqlayd”i. Yuqorida berilgan maqollar ham aynan mana shu qonun mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Vaqtga doir mavzu ham fizika fanining eng qiziqarli va juda kerakli bo’lgan mavzular qatoriga kiradi. Boshlang’ich fizikadan boshlab oliy fizikagacha bo’lgan har bir qadamda “Vaqt” tushunchasiga duch kelamiz. O’zbek xalqida vaqtga doir maqollar anchagina, deyarli barchasi vaqtni fizik ta’riflash uchun asoslidir. Masalan, vaqting ketdi – naqding ketdi, vaqt – oqar daryo, ish bilan vaqt tez o’tar, umr – o’tkinchi mehmon. Bu maqollarning har biri vaqt bir o’lchamligi ekanligiga ishora beradi.

Fizikada yana bir ajoyib mavzu borki, bu mavzu dehqonlarimiz, tibbiyot xodimlari, uy bekalari, qolaversa barcha kasb egalarining hayotida muhim o’rin tutadi. Bu “Kapillyar hodisalar” mavzusidir. Bu mavzuga doir quyidagi maqolni qo’llashimiz mumkin:

Yer haydasang kuz hayda,
Kuz haydamasang yuz hayda.

Yuqoridagi maqol orqali o’quvchilarga ham mavzuning mohiyatini ochib berish mumkin, ham tabiatga va turmushga qiziqishini oshirish mumkin.

Bundan tashqari, fizika fanini o’qitish jarayonida topishmoqlardan ham o’z o’rnida va kerakli joyda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Topishmoqlar o’quvchini zukkolikka, ziyraklikka, diqqatni jamlashga va xotirasini mustahkamlashga

ko’makchi bo’ladi. Quyida fan doirasida qo’llashimiz va foydalanishimiz mumkin bo’lgan topishmoqlarga namunalar keltirib o’tamiz.

1. Oz qo’ysangiz sol deydi,
Ko’p qo’ysangiz ol deydi. (Tarozi)
2. Joni borga o’xshar,
Issig’ingni o’lchar. (Termometr)
3. Ko’kda ko’rdim ko’prik,
Rangi – yetti turlik (Kamalak)
4. Hech ham tinim bilmaydi,
Lek joyidan jilmaydi. (Soat)
5. Kunduzi yonar,
Kechasi so’nar. (Ko’z)
6. Na boshi bor, na tani,
Na joni, na vatani.
Eshitsa biror ovoz,
Javob qaytarar shovvoz (Aks-sado)

Bu kabi xalq og’zaki ijodi namunalaridan foydalanish ham fanni o’rganishni soddalashtiradi, ham tabiatga qiziqishni oshiradi, ham ma’naviy merosimizga bo’lgan hurmatni oshiradi.

Fizika fanini o’rganish va tushunish ba’zida o’quvchilarda biroz qiyinchiliklar tug’diradi. Bunday holatlarda fanlar va mavzularning bir-biriga bog’liqlik holatlaridan keng foydalansak maqsadga muvofiq bo’lar edi. Bunday holatlarda o’quvchilar ham fanni sodda tarzda tushunishga harakat qiladi, ham fanlararo integratsiyaning naqadar muhim ekanligini farqlaydilar. Mavzularni sodda va tushunarli tarzda bayon etish, mavzu va fanlarni bir-biriga to’g’ri bog’lab o’quvchilarga yetkazib berish o’qituvchidan yetarli bilim va mahorat talab qiladi. O’qituvchi o’z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarib o’quvchilarning yuksak bilim olishlariga o’z hissasini qo’shami.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Suyarov, J.Usarov, Z.Sangirova, Y. Ravshanov, N.Buranova “Fizika” 7-sinf uchun darslik. Toshkent. 2022 y.
2. P.Habibullayev, A.Boydedayev, A.Bahromov, M.Yuldasheva “Fizika” 9-sinf uchun darslik. Toshkent. 2014 y.
3. Maqollar to’plami. UzBaza.uz